

богатства в каракалпакской лирике выступают шелк, бархат (шелковое платье, в шелк и бархат одета). В русской - золото (золотой перстень, золотое кольцо)

В русской и каракалпакской народных лириках могут встречаться различные жанровые формы: любовные песни, обрядовые песни, плачи, колыбельные. Их содержание примерно одинаково, однако их словесное воплощение, образы будут

заметно различаться из-за уникальности каждой культуры.

Эти различия являются результатом уникального пути развития каждого народа и его культуры. И русская, и каракалпакская народные лирики обладают глубокой эстетической ценностью и несут богатство своих традиций, отражающих дух, образ жизни и мировоззрение народа.

Литература

1. Антология каракалпакской поэзии. Составитель И.Юсупов. Под ред. С.Северцева – Ташкент: Художественная литература им. Гафура Гуляма, 1968.

2. Русское устное народное творчество: Хрестоматия. Учеб.пособие/ сост., вст., ст. коммент. В.П.Аникина. – М.: «Высшая школа», 2006.

РЕЗЮМЕ. Мақолада рус ва қарақалпақ халқ норитуал шеърятининг ўзига хос жиҳатлари кўриб чиқилади, рус ва қарақалпақ халқлари кўшиқларининг мавзу ва образларидаги ўхшашлик ва фарқлар аниқланади.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются особенности русской и каракалпакской народной необрядовой поэзии, выявляются сходства и различия в тематике и в образах народных песен русского и каракалпакского народов.

SUMMARY. The article examines the features of Russian and Karakalpak folk non-ritual poetry, identifying similarities and differences in the themes and images of folk songs of the Russian and Karakalpak peoples.

JADID NAMOYANDALARI ASARLARIDA ILM VA MA'RIFAT TALQINI

M.Axrorova – o'qituvchi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: jadid, ilm, tarbiya, ma'rifat, e'tiqod, millatning uyg'onishi, jaholat.

Ключевые слова: современность, наука, образование, просвещение, вера, пробуждение нации, невежество.

Key words: modernity, science, education, enlightenment, faith, awakening of the nation, ignorance.

Kishilarning hayot, kun kechirish ehtiyoji qadimgi davrlardanoq bilimni yaratgan edi. Chunki hayot ehtiyojini qondirish uchun kishilar mehnat qilishga, biror ishini bajarishga, intilishga majbur bo'ladilar va biror narsani ishlab chiqaradilar. Moddiy ishlab chiqarish esa, o'z-o'zidan oddiy bilimni talab etadi. Demak, ilmni kishining ehtiyoji keltirib chiqaradi va ilm ehtiyoj uchun xizmat qiladi. Davrlar mobaynida ishlab chiqarish ehtiyoji ilm-ma'rifatning ahamiyatini oshirdi.

Barcha turk, tatar va o'zbek jadidlar dasturiga diniy ta'limga putur yetkazmagan holda dunyoviy fanlarni o'rgatish masalasi kiritilgan edi. Ularning ham targ'ibotini asosiy omillaridan biri – ilm-ma'rifatga chorlash bo'lgan. Adabiyotshunos U.Qobilovning asarida shunday deb keltirilgan: "...Islom dinini qabul etgan mamlakatlarning ijodkorlari diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlari uchun ikki eskirmas va o'lmas manbaga asoslanganlar. Ulardan birinchisi Qur'oni karim, ikkinchisi Hadisi sharifdir" [1:39]. Ustozning fikridan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, o'sha davr she'riyatidagi ilm va ma'rifat g'oyalarining asosi islomiy manbalarga tayangan. Demak, inson kamoloti uchun birinchi – ilm-ma'rifat, ikkinchi omil – e'tiqod edi. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg'or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi. Ular millatni – ma'rifatga, haqni, o'zligini, millatni tanishga chorladi. O'sha davrda millatni boshidan kechirayotgan voqealarni to'g'ri anglash uchun jamiyatga ko'proq e'tiqodi to'g'ri yo'nalgan shaxslar kerak edi. Ilm-ma'rifat esa, ko'r-ko'rona e'tiqoddan asraydi. Ma'rifatga maqsad emas, vosita sifatida qarash zarur edi. Avloniy yozadi:

Ilm-u amalda jumlamizi barqaror qil,

Din-u shariat uzra bizi ustuvor qil (Avloniy, 106).

Ko'nikma va sharqona aqida bo'yicha ma'rifatli kishi baxtli bo'lishi lozim edi. Bu tushuncha o'zgardi. Demak, birgina ilm-ma'rifat baxt berolmaydi. U istiqloq yo'lida vosita bo'lishi, nari borsa, unga yordam berishi mumkin xolos. Asosiy gap boshqa yerda. Uning 1913-yilda bosilib chiqqan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ham shunga yaqin gap bor edi: "Bobolarimizning "bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar" zamonlari o'tib, o'rniga "bilgan bilar, bilmagan yitar" zamonlari keldi. Amerikalilar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar. Yevrupolilar

o'zimizdan olgon besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyolilar, xususan, turkistonlilar, dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berub, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz! So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas sa'y, bitmas g'ayrat lozimdur..." [2:20].

Abdulla Avloniy odamlarni xulq-atvoriga qarab ikki guruhga – yaxshi va yomon xulqli kishilarga bo'ladi. Ta'lim-tarbiya bilan yaxshi xulq, ta'lim-tarbiyasiz yomon xulq tarkib topishini uqtiradi:

Tug'ub tashlov-la bo'lmas bola, bo'lg'ay balo sizga,

Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga.

Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim,

Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim (Avloniy, 6).

Avloniy ham 1912-yilda yozgan "O'z millatimdan rajoyi ojizonam" she'rida xalqqa murojaat qilib, uni "ko'zingni och, g'aflatda yotma" deb uyg'onishga da'vat qiladi:

Qani avvalgi ilming, funundan e'tiroz etding,

Jaholat yori bo'lding, oshinolardan aroz etding,

Bilib do'stingni dushman, dushmaningni sarfarozi etdi

Kirib g'aflatni xobiga o'zingni inqiroz etding.

Ko'zingni och, yotma g'aflatdan o'son millat, o'son millat,

Topar san birla avlodning, omon millat, omon millat (Avloniy, 109).

Avloniy nazarida millatning uyg'onishi uchun fursat yetdi, millatning o'z-o'zini anglashib jaholatdan xalos bo'lish bilan bog'liqdir.

Xuddi shunday fikrlar Habibiy qalamiga ham mansub:

Aziz yoshlar uchun yoshlik g'animat,

Bilimsizning bo'lur armoni maktab (Habibiy. Maktab, 20).

Is'hoqxon Ibrat yozadi: "Madaniyatga yetmak uchun nima darkor bo'ladi? Ilm darkor bo'ladi. Qaysi ilmdu? Ilmi funundan fizikiy, kimyoviy, tibbiy, muhandisiiy, tujjoriy va yana hunar maktabi ham bularga darkor edi. Agarda shahrimizda shul maktablar bo'lsa, shahrimizni madaniyatga kirgan deb hisob qilur eduk" [3:96]. Ibrat ijodida xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiladigan ilm-fanni, yangi texnikani kuylaydi. Uning "Tarixi chofxona", "Madaniyat haqida masnaviy", "Turkiston ahlig'a xitob",

“Qalam” kabi she’rlarida xalqni asriy qoloqlikdan qutqaruvchi yo’l – ilm-fan yo’li ekanligini ta’kidlaydi. Ilm-ma’rifatga o’rgatuvchi, barcha ma’rifiy xabarlardan boxavar qilib turuvchi vosita gazeta ekanligiga urg’u berib, “Gazeta xususida” she’rini yozadi va gazeta muxbirlarini, fozil kishilarni ilmning yangi yutuqlarini yozib turishga, xalqni bunday yutuqlardan bahramand qilishga da’vat qiladi, xalqni gazeta o’qishga, undan ibrat olishga chaqiradi:

*Fuzalo yaxshi fikrlar yozsin,
Xohishi bo’lsa xalqqa ehson.
O’qur endi gazetani har yerda.
Xoh masjid yoki mayxona.
Ibrat olsun xalqimiz bundan,
Kirdi bir uh jismi bejona (Ibrat, 99).*

Bahrombek Davlatshoh o’g’li esa, xalqni o’z tarixidan g’ururlanishiga, ilm-fanga e’tiqod, qiziqish uyg’otishga harakat qiladi:

*Bizi millat emasmu ibtido dunyoni nurlatqon,
Hama g’aflatning uyusina yotqonlarni uyg’otqon.
Madaniyat tarqatqon, har urug’a ilm tarqatqon,
Tijorat birla mashriqdan oshib, mag’rib borib sotqon,
Kelinglar bahs etaylik emdi istiqboli millatdan,
Boqib ibrat bila, o’tmish zamon ahvoli millatdan.*

Davr islohotlarining asosiy mazmuni komil inson tarbiyalovchisi xotin-qizlarning yangi g’oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo’llab-quvvatlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan harakatlar, o’zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta’minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug’lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo’tabar onalarimizni e’zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro’yobga chiqadi, degan g’oya Bahrombek Davlatshoh o’g’li tomonidan ko’tariladi:

*“Tek tur!” degan kishi so’zig’a osmayin quloq,
Ishga tutun, o’tirma uyungda bo’lib qo’noq.
Qo’lga tutub bilim yaroqin, hur otina min,
Dushmanlarimiz etmak uchun bizlari uluq...*

Ona bolaga to’g’ri e’tiqod qilishni o’rgatsa, bola moldunyoga emas, Haqqa, ma’rifatga, ilmga, axloq-odobga e’tiqod qo’ysa, jamiyatda o’z o’rnini topadi. Shoir aytganidek, *dushmanlarimizga uluq bo’lmay, o’zi yashayotgan jamiyatda farovon va hur fikrli inson bo’lib yashashga* chaqiradi.

Bahrombek Davlatshoyev o’z davri ijtimoiy-siyosiy voqealarining guvohi sifatida sodir bo’layotgan adolatsizlik va ma’rifatsizlikka sukut saqlay olmadi. Shu bois o’z she’r va maqolalarida yurtdoshlarini ilm-u ma’rifatga, ittifoqlikka chaqirdi. “O’tmish hollardin taassuf va istiqbol uchun ko’chish” she’rida quyidagi fikrlarni bayon qiladi:

*...Nishon hech qolmadi avvalgi... millatdan,
Na bo’ldi deb xabar olg’uvchi bormu holi millatdan.
Kelinglar so’zlashayluk emdi istiqboli millatdan,
Xabar olib turaylik cho’x fano ahvoli millatdan.
Biror millat jahonda bormu bizlardek shatolatli,
O’zining naf’ini hech bilmag’on g’ofil zalolatli.
Hunarsiz, ilmsiz, nomussiz, nodon jaholatli,
Ko’rib ming xo’rlik bir bo’lmag’on ondin xijolatli...*

... Bizi millat emasmu ibtido dunyoni nurlatgan!

Hama g’aflatning uyusina botqanlarni uyg’otgan!

O’tmishda buyuk ishlarni amalga oshirgan millat nima uchun bunday ahvolga tushdi, degan savol shoirni qiynaydi, o’quvchini o’tmish va kelajakka nazar tashlashga majbur etadi. Shu bois porloq istiqbol yo’lini millatning uyg’onishi, ittifoqlik, ilm-u hunar taraqqiyotida ko’radi va shunga chorlaydi. Ana shuning uchun ham Ostroumov va boshqalar tomonidan o’z millatining kamsitilib “sart” deyilishi va bu masalada “Oyina”, “Turkiston viloyatining gazetasi”da boshlangan bahslarga yakun yasagandek, “Sho’ro” jurnalida “Turkistonlilar” maqolasini e’lon qiladi va bir yuz o’n bir turk urug’ini nomma-nom keltiradi [4:4].

Buyuk adabiyotshunos, ma’rifatparvar, o’zbek adabiyoti

tarixidagi birinchi dramaning muallifi Mahmudxo’ja Behbudiy “Padarkush” dramasida ziyoli obrazi orqali boyga ilm olish zarurligini uqtiradi: “*Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi ham kundan kunga qo’ldan ketgandek, axloq va obro’yi ham qo’ldan chiqar, hatto dini zaif bo’lur... Vaholanki, dini sharifimiz har naflik ilm o’qumoqni beshikdan mozorgacha bizga farz qilgandir*” [5:43]. Darhaqiqat, o’sha davrda xalq ilm olishga e’tibor bermay, boylar mablag’larini bolasiga bilim berish uchun emas, balki behuda narsalarga sarflab yuborishardi. Behbudiy va uning izdoshlari xalqni ilm olishga undab, xalqning birovg’a qaram bo’lib qolmasligi uchun harakat qilishardi. Ushbu dramada Behbudiy Turkiston va millatimiz haqida shunday deydi: “*Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg’on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo’lganlarda beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o’qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxtliliklar oramizda doimo hukmfarmo bo’lsa kerak. Bu ishlarni yo’q bo’lmog’iga o’qumoq va o’qutmoqdan boshqa iloj yo’qdi*” [5:25].

Behbudiyning 1913-yilda “Samarqand” gazetasida nashr ettirilgan “Millatni qanday taraqqiy etarlar?” nomli maqolasida shunday satrlar keltiriladi: [6:49]

*Maro ba tajriba ma’lum shud daro har kor,
Ki qadri mard ba ilm ast qadri ilm ba mol.*

Ya’ni mard kishining qadri ilm bo’lsa, ilmning qadri moldadur, deydi. Chunki o’sha davrda yangi usulda zamonaviy maktablar bino etish, zamonaviy o’qituvchilarni jalb qilish ancha mashaaqqat edi. Hukumatni o’rta va oliy maktablariga oqiydigan millat bolalari oz edi. O’qimishli, aqlli boylar diniy va dunyoviy maktablariga farzandlarini berub, o’z xarajatlarini bilan o’qitardilar, qolganlarni qurbi yetmas edi.

Yana bir jihati, jadidlar XX asrda O’rta Osiyoda sodir bo’layotgan voqealarni tahlil qilib, voqea-hodisalariga nisbatan qanday munosabatda bo’lishni o’tmishdan izlagan edilar. Jumladan, Sadridin Ayniy 1917-yilda yozgan “Samarqand-u Buxoro” nomli she’rida Buxoro o’tmishini ilm-ma’rifat manbayi bo’lganligini, donishmand-u fuzalolar yurti ekanligini aytib, o’z davridagi ilmsizlik, jaholatda qolgan muhit yuzaga kelayotganligidan noligan:

*In hamon Mulki Buxorost zi jahdi ahlash,
Manbai ilm ba islom shuda chandin sol.
In hamon Mulki Buxorost Ali Sinoro
Rutbae dod, ki nodida kase to in hol.*

Va amorat davrida:

*Mehr-u Shafqat ba zamon nest, agar hast-piyo,
Odamiyat ba jahon nest, agar hast-xayol [7:78].*

Ya’ni, Buxoro yillar va asrlar davomida islom olamida aholisining g’ayrati bilan ilm manbai bo’lgan diyor hisoblanadi. Abu Ali inb Sino singari allomalarga shunday daraja berdiki, buni hali hech kim eshitmagan va ko’rmagan va bu ham Buxoro mulkidir.

Ammo bugungi kunda:

Bu mulkdan mehr-shafqat ko’tarilgan, agar biroz bo’lsa ham bu riyokorlikdan iboratdir. Bu mulkdan odamgarchilik va ahillik ham barham topgan, agar ulardan biror narsa to’paman desangiz, xayoldan boshqa hech narsani ko’z oldingizga keltira olmaysiz.

Mazkur fikrni rivojlantirib Abdurauf Fitrat “Hind sayyohi bayonoti” nomli asarida shunday yozadi: “*Ma’lumki, Buxoro qadimdan o’ta dono va zukko fuzalo ahlini tarbiyalab, voyaga yetkazgan. Har kuni bir Abu Ali, Forobiy va boshqalarni jahonga hadya etib, shu tariqa o’zining sharaflari dovru’ini dunyo xalqlarining quloqlariga zirak etib taqqan. Ammo, mana ikki yuz yildirki, o’zining ilmiy qiymatini yo’qotdi. Mirzojon Sheroziyning kirib kelishi bilan, Buxoro ulamolari lafz-so’zlar ma’nisini*

tadqiq etishdek foydasiz ishga berilib, adashdilar. Turkistonliklarning ko'pchiligi bu yerda tahsil ko'rganligi tufayli, buxoroliklarga ergashib jaholat va g'afolat botqog'iga botdilar. Oqibatda madaniyat osmonining porloq yulduzi, insoniyat kitobining nurli sahifasi bo'lgan Turkistonni do'st-u dushman oldida uyatlik bir holga yetkazdilar, halokatga mubtalo etdilar" [8:3].

Xullas, qaysi jadid ijodkor ijodiga diqqat qaratmang, barchasida aql, ilm-ma'rifat, axloq-odob, ta'lim-tarbiyadan qimmatliroq meros yo'qligini ming bor takrorlaydi. Shu bilan birga, ma'rifatparvar shoirlarning o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy tuzum, uning diniy-mistik ideologiyasi

hukmronligi ostida yashab ijod etganliklari tufayli ularning ayrim fikr-mulohazalarini ro'y-rost aytolmaganliklarini, asl mohiyatini xas-po'shlab bayon etganliklarini hisobga olish zarur [9:82,24].

Turkiston mintaqasida XIX asr oxiri XX asr boshida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o'lkada zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sabab bo'ldi. Ularning millatni uyg'otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo'lidagi mardonavor kurashi jadidlik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Jadidlar bu harakatda millat fidoyilari sifatida tarix zarvaraqlariga muhrlandi.

Adabiyotlar

1. Қобилов У. Илоҳиёт ва бадият. – Тошкент: “Нихол”, 2008. 39-б.
2. Avloniy A. Turkiy gulisiston yoxud axloq. – Toshkent: O'zbek Milliy Ensiklopediyasi, 2004. 82-b.
3. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: “Шарқ”, 1994. 136-б.
4. Sirojiddin Ahmad. Bahrombek – tarjimon. // “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2022-yil 3-iyun, 19 (4678)-son. 4-b.
5. Maxmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 1999. 279-b.
6. Odob-axloq kitobi / Jadid adabiyoti namoyandalari: M.Behbudiy va boshq. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2015. 190-б.
7. Садриддин Айний. Танланган асарлар. – Тошкент: “Фан”, 1978. 336-б.
8. Абдурауф Фитрат. Хинд сайёҳининг киссаси. // “Шарқ юлдузи”. 1991, №8. 3-б.
9. Абдурауф Фитрат. Ўзбек маърифатпарвар шоирлари илм-маърифат ҳақида. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1972. 82-б; Очилов М.У. Ўзбек адабиётда одоб-ахлоқ тасвири муаммоси ва унинг янги талқини: Филол. фан. номз.дисс. автореф. – Самарқанд: 1997. 24-б.

REZYUME. Maqolada Alisher Navoiy va jadid namoyandalari asarlarida ilm, ma'rifatning targ'ib qilinishi, bilimsizlik jaholatga eltuvchi vosita ekanligi haqida so'z yuritilgan, misollar asosida tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о пропаганде знаний и просвещения в творчестве Алишера Навои и представителей Джадида, а также о том, что невежество является инструментом, ведущим к невежеству, и анализируется на основе примеров.

SUMMARY. The article talks about the promotion of knowledge and enlightenment in the works of Alisher Navoi and the representatives of Jadid, and the fact that ignorance is a tool that leads to ignorance, and it is analyzed on the basis of examples.

QARAQALPAQ BALALAR OYIN FOLKLORININ JANRLIQ QURAMI

Q.Biysenbaev – *tayanish doktorant*

Ajiniyaz atundagi Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so'zlar: bolalar folklori, savol-javob, dramatik karakter, so'z va o'yin uyğunligi, ijodkorlik, ijrochilik mahorati.

Ключевые слова: детский фольклор, вопросы и ответы, драматизм, гармония слов и игр, творчество, исполнительское мастерство.

Key words: children's folklore, question and answer, dramatic character, harmony of words and games, creativity, performance skills.

Qaraqalpaq balalar oyın folklorınıń kelip shıǵıwında kórkem xalıq awızeki dóretiwshiligi dástúrleri tiykar jaratadı. Sóz oyın qosıqları túrkiy xalıqlar, sonıń ishinde qaraqalpaq balalar folklorında óz aldına gárezsiz janr sıpatında áyyemgi dáwirlerden búgingi kúńge shekem janlı halatta saqlanıw kelmekte.

Balalar folklorı xalqımız kórkem awızeki dóretiwshiliginiń quramlı bir bólegin qurap, óz aldına bir neshe janrlardı óz ishine aladı. Úlkenler folklorındaǵı qosıq, ertek balalar folklorında perzentlerine maslastırılǵan halda jaratılǵan boladı. Biraq dástan, terme sıyaqlı quramalı ómirlik waqıyalar menen baylanıslı bolǵanı ushın bul janrlar balalar ádebiyatında ushıraspaydı.

Qaraqalpaq kórkem xalıq awızeki dóretiwshiliginde «Sóz oyın qosıqları» yamasa «Oyın zawıq qosıqları» atamaları kóbinese soraw-juwap formasındaǵı poeziyalıq qatarlarǵa qarata ayıladı. Balalardıń kórkem oylawınıń jemisi bolǵan bul qosıqlar kólemi jaǵınan hár túrli: uzın hám qısqa bolıp keledi.

Sóz oyın qosıqları balalar folklorınıń óz aldına tariyxıy hám dástúriy xarakterge iye bolǵan janrlarınıń biri bolıp, balalardıń besik dáwiri juwmaqlanıwı menen atqarıla baslanadı. Álbette, bul qosıqlar balanıń jas ózgesheligi menen baylanıslı ayılıp, oylaw hám sóylew qábileti rawajlanıp atırǵan eki-úsh jaslardan baslanadı. Balalar sóz oyın qosıqlarınıń tiykarında qızıqlı soraw-juwap formasındaǵı kórkem sóz qatarları jatadı.

Qaraqalpaq balalar folklorında sóz oyın qosıqlarınıń xalıq arasinan jıynalıw, jazıp alıw hám járiyalanıw jumisları XX ásirdeń 30-40-jıllarında baslanǵan. Biraq, bul janr boyınsha búgingi kúńge shekem óz aldına arnawlı jumis

islenbegen. Sóz oyın qosıqları oz aldına janrlıq qásiyetlerge iye. Tili shıqqan, yaǵnıy erkin sóyley alatuǵın sóz mánilerine túsiniwshi hám sorawlarǵa juwap qaytara alatuǵın balalarǵa úlkenler tárepinen ayıladı. Sóz oyın qosıqları dáslep balaǵa úyretilip atırǵan waqıtlarda dialog formasında ayılǵan, sonın ala qosıq teksti tolıq meńgerilgenнен keyin óz aldına erkin aytıw imkaniyatına iye boladı. Sóz oyın qosıqlarında oyın háreketleri de tiykarǵı zárúr elementlerdiń biri saplanadı. Jáne bir ámiyetli tárepi atqarıw processinde málim bir waqt yaki orın talap etilmeydi. Olardı qálegen waqıtta, qálegen orında aytıw múmkin. Janrdıń baslı ózgesheligi, ata-ana menen balanıń dásme-dás juwaplasıwınan ibarat bolsa da, biraq tiykarǵı atqarıwshı birew ǵana boladı [3:57]. Janrdıń jáne bir óz aldına áhmiyetli qásiyeti sóz oyın qosıqları tili jeńil, yadlap alıwǵa qolaylılıǵında. Balalar bul qosıqlardı atqarıp atırǵanda sózler kóz aldına kórinislerdi payda etedi hám ózleri belgili bir obraz xizmetinde atqarıwı múmkin.

Bunnan tisqari balalar oyın qosıqları balalarǵa túsinikli bolıwı ushın ápiwayı hám túsinikli tilde jazıladı. Bul qosıqlarda kóship júriwshi qatarlar kóp ushırasadı. Sóz oyın qosıqları dástúriy qatarlar menen baslanıp, keyingi qatarlarda dáslepki qatarlardıń formasın saqlaǵan halda dawam etiwı kórinedi. Kópshilik qosıqlar bir neshe epizodtan ibarat uzın qosıqlar. Biraq, sonday uzın bolıwına qaramastan balalardıń yadlap alıwına, yadta saqlap qalıwına qolaylı. Uzın qosıq qatarlarına iye bolǵan sóz oyın qosıqlarınıń bánt bólimin anıqlaw qıyn. Tek ǵana uyqasına qarap belgilep alıw múmkin. Sóz oyın qosıqları masnawıy, yaǵnıy ekilik xarakterdegi uyqasqa iye bolıp, mazmunı jaǵınan baylanıslı bolıp keledi.